




Mavzu:Cho‘lpon hayoti va ijodi



Adabiyot

Abdukadirova M.M.



*Abdulhamid
Sulaymon o`g`li
Cho`lpon*

(1897-1938)

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon **1897-yilda**
Andijon shahrining Qatorterak mahallasida tug‘ildi.

Ziyoli ota



- Uning otasi Sulaymonqul mulla **Muhammad Yunus o‘g‘li** Andijonning obro‘li kishilaridan bo‘lib, savdogarchilik bilan shug‘ullanar edi. U zamonasining o‘qimishli kishilaridan hisoblanar, o‘zi ham she’rlar yozib turardi. O‘sha davrda bo‘lajak shoirning otasi o‘zi yozgan hajviy she’rlardan devon tuzganligi haqida ma’lumotlar bor. **“Rasvo”** taxallusi bilan ijod qilgan.



TAXALLUSLARI:
Cho`lpon
Qalandar
Mirzo Qalandar
Andijonlik
“Q”



Ta'l im



- Cho'lpon madrasa tahsilini ko'rgach, 1912-1914- yillarda rus-tuzem maktabida o'qidi. Shu vaqtda „Tarjimon" gazetasi va „Oyna" jurnaliga xabar va she'rlar yo'llab turdi.
- 1914-yilda „Sadoyi Turkiston" gazetasida Cho'lponning “Turkistonli qardoshlarimizga” she'rining e'lon qilinishi esa o'z mavzusiga ega, o'zbek xalqining taqdiri ustida kuyinayotgan shoirning dunyoga kelganidan darak berdi.



Cho'lpon – tong yulduzi!

- Cho'lpon “Sadoyi Turkiston” gazetasida “**Qurbanji Jaholat**” va “**Do'xtur Muhammadyor**” hikoyalarini hamda “**Yozg'uvchilarimizga**”, “**Adabiyot nadur?**” maqolalari (1914-yil) ni e'lon qildi.

• Holbuki, u bu vaqtida endigina 16 yoshga kirgan yigitcha bo`lib, *Munavvar qori* unga bejiz **Cho'lpon — Tong yulduzi**, degan taxallus bermagan ekan.



Jo'shqin faoliyat



1919-1923 - «Yangi sharq», «Ishtirokiyun» (1920-yildan «Qizil bayroq», 1922-yildan «Turkiston») gazetasida adabiy xodim;

1920-1923 - Xalq maorif komissarligi qoshidagi Ilmiy kengash (1921-yildan O'lka o'zbek bilim hay'ati, 1922-yildan Ilmiy hay'at) da rais;

1921-22 - «Buxoro axbori» gazetasida muharrir ;

1921; 1922-23 - «Turon» teatrida direktor ;

1922-23 - «Mushtum» jurnali va «Darxon» gazeyasida texnik muharrir, adabiy xodim ;

1924-27 - O'zbek drama studiyasida adabiy emakdosh (Moskva);

1927-31 - O'zbek davlat drama teatrida adabiy emakdosh ;

1931-34 - SSSR XKS va Sharq xalqlari markaziy nashriyotida tarjimon (Moskva);

1935-37 - «Mushtum» va «Guliston» jurnallari hamda «Teatru» gazetasida adabiy xodim (jamoatchilik asosida).



Mash'um kun



- Millat baxti uchun jonini tikkan jasur o'g'lon, buyuk iste'dod egasi bo'lgan adib **1937- yilning 14- iyulida qamoqqa olinadi.**
- Davrining bir guruh asl farzandlari qatori **1938-yilning 4- oktabrida otib tashlanadi.**
- **1938-yil 5-oktabrda** otib tashlash haqida qonun chiqdi.



Asarlari




SHE'RIY TO'PLAMLARI:

- “Uyg'onish” (1922);
- “Buloqlar” (1923);
- “Tong sirlari” (1926);
- “Soz” (1935);
- “Jo`r” - oxirgi to’plami, nashr etilmay qolgan.
- “Yana oldim sozimni” (1991).
- “O'zbek yosh shoirlari” (1923);
- “Go'zal yozg'ichlar” (1925);
- “Adabiyot parchalari” (1926) ;



Diqqat, bilib oling!



- Barmoq vazni Cho'lpon va Fitratning ijodiy izlanishlari bilan XX asrning 20-yillari boshlaridayoq yangi o'zbek she'riyatining asosiy vazniga aylandi.



Ocherk va hikoyalari



OCHERKLARI:

- “Yo‘l esdaligi”;
- “Vayronalar orasidan” ocherklari...

HIKOYALAR:

- “Oydin kechalarda”;
- “Qor qo‘ynida lola”;
- “Novvoy qiz”;
- “Oq podshoning in’omi”;
- “Gavharoy”...



MAQOLALARI



- "Adabiyot nadir?" (1914-1915)
- "Muhtaram yozuvchilarimizga"
- "Shohnoma"ning turkcha tarjimasi"
- "Tilimizning ishlanishi"
- "Tarjima to‘g‘risida jindak"
- "So‘z, so‘z, suz"
- "Abo Muslim", "Iblis"
- "Shayx San’on", "Oydin"
- "Malikai Turondot"
- "Meyerxold teatri"
- "Tursunoy sahnada"



MAQOLALARI

o‘zbek va xorijiy xalqlar adabiyoti

- "Marhum Tavfiq Fikrat" "Ikki yuqotish"
- "Rizo Tavfiqbek"
- "Tagor va tagorshunoslik"
- "Ulug‘ hindi"
- "Jo‘rj Dandon"
- "Katta maktab egasi"
- "Uvaysiy"
- "Ustodning xislatlari"





DRAMALARI



**1919-yil – “Temurchi”, “Gunoh”,
“Cho`rining isyoni”;**

**1921-yil - “Yorqinoy”; “O‘ldiruvchi”;
“Halil farang”**

1922-yil - «Sevgi va sultanat», “Cho‘pon sevgisi”;

1928-yil – “Hujum” (Rus yozuvchisi V.Yan bilan);

1929-yil - “O’rtoq Qarshiboyev”;

“Qorovul uyqusi”;


“Yana uylanaman“;

“Uzunqulqoq bobo”

“Mushtumzo'r“...



Tarjimachilik



- K.Gotssi, «Malikai Turondot»;
- N.V.Gogol - «Tergovchi»;
- Bill Belotserkovskiy «Labbay», «Po‘rtana»;
- Moler - «Xasis»;
- K.Goldon - «Ikki boyga bir qarol»;
- Lope de Vega «Qo‘zi buloq»;
- U.Shekspir - «Hamlet»;
- F.Shiller - «Bosmachilar»;
- S.Levitina - «Hukm»;
- A.Fayko - «Portfelli kishi»;
- V.Tretyakov - «Na’rangni tort, Xitoy!»;
- V. Ivanov - «14—69 raqamli zirhli poezd» pyesalarini o‘zbek tiliga o‘girdi.





Mumtoz tarjimonlik



- **A.S.Pushkin** - «Boris Godunov», «Dubrovskiy»;
- **I.S.Turgenev** - «Cho‘ri qiz»;
- **I.Franko** - «Million», «Feruza»;
- **L.Andreev** - «Gubernator», «Osilgan yetti kishining hikoyasi»;
- **A.P.Chexov** - «Qochoq»;
- **A.M.Gorkiy** - «Ilgaklar», «Ona» kabi asarlarni ham tarjima qildi.



E'tirof

CHO`LPONGA:

- Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991);
- «Mustaqillik» ordeni (1999) berildi.
- 1997-y. Cho`lponning 100 yilligi keng nishonlanib, Andijonda Cho`lpon uy-muzeyi tashkil etildi;
- O‘zbek milliy akademik drama teatrida Cho`lpon hayoti va ijtimoiy faoliyati haqida hikoya qiluvchi **«Kunduzsiz kechalar»** (Usmon Azim asari) spektakli sahnalaشتirildi.



"KECHA KUNDUZ"

romani



- Cho‘lpon mislsiz she’riy kashfiyotlardan tashqari «**Kecha va kunduz**» deb ataluvchi birinchi o‘zbek roman-dilogiyasining muallifi hamdir. Asar ko‘pchilik o‘quvchilar tomonidan Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romani darajasidagi asar sifatida baho oldi.
- Asar 1935-1936-yillarda yozilgan.



CHO'L PONNING «KECHA VA KUNDUZ» ROMANI TO‘G‘RISIDA

(N. Karimov maqolasidan olindi.)



TIIAME

- “Ushbu romanning dastlabki boblari **1935-yilda «Sovet adabiyoti» jurnalining 1-sonida e’lon qilindi.** Bu faktga asoslanib, biz asarni 1934-yilda yozib tugallangan, deb qat’iy ayta olamiz.
- Adabiy tanqidning «zambaraklar»i o‘zini nishonga olib turganini bilgan Cho‘lpon roman qo‘lyozmasining Yozuvchilar uyushmasida muhokama qilinishini qanchalik istamasin, rasmiy adabiy jamoatchilik bu ishga bosh qo‘shmadi.



- Muhokama uchun roman o‘qiladigan bo‘lganda, bor-yo‘g‘i 11 kishi qatnashdi. Ikkinchisi safar ulardan atigi 7 tasi ishtirok etdi. Uchinchi qismning o‘qilishiga esa 4—5 kishidan boshqasi kelmadi. Hatto uyushma rahbarlari ham Cho‘lponning romani bilan qiziqmadilar.
- Roman 1936-yilning oxirida, katta qiyinchiliklardan keyin, nashr etildi. Lekin u kitob do‘konlarida turib qolmadi. Shunga qaramay, 1937-yilning avgustiga, Cho‘lpon hibsga olingunga qadar, matbuot bu asar haqida og‘iz ochmadi.




Cho‘lponning badiiy niyatiga ko‘ra, aytib o‘tilganidek, romanning ikkinchi qismi «Kunduz» deb atalishi lozim edi. Lekin bu qismning taqdiri to‘g‘risida aniq ma’lumot yo‘q. Ayrim kishilar bergen xabarlarga ko‘ra, muallif bu qismni yozib tugatgan, hatto u hibsga olingan paytda asar grankasi (bosma varaqalari) tayyor bo‘lgan.

Roman 1987-yilda «Sharq yulduzi» tahriri yati tomonidan chop etilayotgan kezlarda, shu grankaning Samarqandda istiqomat qiluvchi qandaydir bir kishining qo‘lida saqlanayotgani haqida «mish-mish»lar tarqaldi...



TIIAME





Abdulla Oripov esa *Xitoy safaridan* qaytganidan keyin urumchilik Yolqin Abdushukurning «Kunduz»ni o‘qiganligi va bu asarning ayrim lavhalari hozir ham uning xotirasida omon saqlanayotganligi haqida darak berdi. Lekin na uning o‘zi, na boshqa biror kimsa Yolqin Abdushukur bilan uchrashib, «Kunduz»ning keyingi taqdiri bilan qiziqmadi. Bizning ham bu boradagi harakatlarimiz oxiriga yetmadi...”






UY VAZIFASI



- “Idrok xaritasi”ni to`ldiring.
- Savollarga javob bering.

Idrok xaritasi





SAVOLLAR:



1. Cho`lpon kimlarning asarlari ta'sirida turkchilik g'oyalari, jadid qarashlari bilan tanishadi va “O`zbek milliy yozuvchisi” bo`lishga ahd qiladi?
2. Cho`lponning adabiy taxalluslari?
3. Cho`lponning ilk she'ri va hikoyasi qachon va qayerda bosildi?
4. 1921-22 yillarda o`zbek tilini rasmiy til sifatida yoyish, buxorolik mehnatkashlarni siyosiy hayotga jalb etish, adabiyotni va san'atni rivojlantirish bo`yicha etakchi nashrga aylangan gazeta?
5. Cho`lponning milliy dramaturgiyani rivojlantirishga qo`shtgan hissasi?
6. Cho`lpon 1932-1935- yillar davomida Moskvada yashagan. O`sha paytlarda u kimlarning asarlarini tarjima qildi?
7. Cho`lponning so`nggi she'rlar to`plami?
8. Cho`lpon o`zbek adabiyotida qaysi janrga asos soldi?
9. “Oydin kechalarda” hikoyasi nima haqida?
10. “Somon parcha” she`ri mavzusi nima?
11. “Kecha va kunduz” romanida Zebi Akbarali mingboshiga tekkach, kimning o`rnini egalladi?
12. Zebini zaharlamoqchi bo`lgan qahramon kim edi?
13. “Soddasan, Akbarali! Podsholik hamma vaqt yurtning obro`ylik odamlarini himoya qiladi.” Ushbu gaplar kim tomonidan aytilgan?
14. “Kecha va kunduz” romani qachon yozilgan va qaysi nashrlarda e`lon qilingan?



**E'TIBORINGIZDAN
XURSANDMIZ!**